

ALISHER NAVOIYNING LIRIK MEROSI

Z. Tosheva¹*Annotatsiya:*

Alisher Navoiy serqirra ijodkor. Adabiyotimiz tarixida u ko'proq shoir sifatida mashhur. Navoiy juda erta yoshdan boshlab, to umrining oxirigacha she'riyat bilan oshno bo'ladi. She'r yodlash, she'r yozish hayoti mazmuniga aylandi. Navoiy Shoir sifatida Sharq adabiyotini mukammal bildi, o'rgandi. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, A. Jomiy, Sa'diy, Lutfiy va boshqalarni o'ziga ustoz deb biladi. Manbalarda qayd etilishicha u maktab yoshidan boshlab she'r yoza boshladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiyning ijod yo'li, Alisher Navoiyning turkiy she'riyati kulliyoti "Xazoyin ul-maoniy".

doi: <https://doi.org/10.2024/e07fw292>

1465-66 yillar orasida kitobxonlar tomonidan she'rlari jamlanib devon tuziladi. 1465-1466 yillarda tuzilgan ilk «Devoni Navoiy» mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan tayyorlangan. Unda 1466- yildan ilgari yozilgan she'rlari kiritilgan. Devonda 391 g'azal, 41 ruboiy va bir mustazod bor. Hayotiy ishqni kuylaydi. Diniy fikrlarni bildiradi. Shohlik va darveshlik haqida gapiradi. Davr muammolari haqida bahs yuritadi.

1470-76- yillarda o'zining ilk devoni «Badoe ul-bidoya»ni tuzdi.

Dahr bog'ida bo'lib komim ravo,

Komronlar topti nazmimdin navo.

Shu bayt asosida «Navoiy» taxallusi «Baxtni kuylovchi» ma'nosida olgani aytiladi.

Bu devondan shoirning 842 ta she'rlari joy olgan. Ulardan 585 tasi g'azal, 3 ta tarjiband, 4 ta muxammas, 2 ta musaddas, 3 ta mustazod, 49 ta qit'a, 78 ta ruboiy, 10 ta chiston, 52 muammo, 10 ta tuyuq, 46 ta fard.

1476-84- yillar orasida 2-devoni «Navodir un-nihoya»ni (Behad nodirliklar) tuzdi. Ikkinchi rasmiy devon, «Navodir un-nihoya»sini esa «Xamsa»ni tugatishi hamonoq – 1485- yilda tartibga keltirgan. Unda 693 ta she'r o'rin olgan. Bular 628 ta g'azal, 3 ta mustazod, 3 ta tarjiband, 5 qit'a, 46 ta ruboiy, 1 ta lug'z, 6 ta muammo va 1 ta tuyuqdan iborat. Navoiyning bu devonlari keyinchalik «Xazoyin ul maoniy» («Chor devon»)ni tuzishga sabab bo'ladi. Ushbu devonning umumiy hajmi 45 ming misraga yaqindir.

"Xazoyin ul-maoniy" (Ma'nolar xazinalari) devonlar turkumi 1491-1498 orasida Sulton husayn Boyqaroning "farmoni vojib ul-iz'oni" (itoat qilishga majbur farmoni) bilan tuzilgan. "Xazoyin ul-maoniy"iga tuzilgan yillargacha yozilgan she'riy asarlar, bundan oldin tuzilgan devonlardagi turli nav`dagi she'rlar kiritilgan. "Xazoyin ul-maoniy" shoir umrining to'rt fasli asosida to'rtta quyidagi devonlardan iborat:

- "G'aroyib us-sig'ar" (Yoshlikning ajoyibotlari) 7-8 yasharlikdan 20 yasharligigacha yozilgan she'rlarni qamrab oladi.

¹ Zamira Tosheva Abduvoxidovna, SamDCHTI akademik litseyi, "Ona tili va adabiyot" kafedrasi o'qituvchisi

"Navodir ush-shabob" (yigitlikning nodirliklari)-20-35 yoshlar orasida bitilgan she'rlardan iborat.

"Badoe' ul-vasat" (o'rta yoshning ajoyib yangiliklari)- 35-45 yoshlar orasida yozilgan she'rlar.

"Favoyid ul-kibar" (keksalikning foydalari) 45-60 yoshga yaqin vaqtda yozilgan she'rlarni o'z ichiga oladi.

"Xazoyin ul-maoniy" debocha, g'azal (2600), ruboiy (133), muxammas (10), mustazod (4), musaddas (5), tarje'band (4), qit'a (210), lug'z-chiston (10), muammo (52), tuyuq (13), fard (86), masnaviy (1), qasida (1), musamman (1), tarkibband (1), soqinoma (1), jam'i o'n olti nav' she'rdan iborat bo'lib, undagi baytlarning umumiy soni 22450, 5(45000 misra) dir.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi she'riyati to'rtta devonga to'plangan bo'lib, ulardan birini ("Ilk devon") muxlislari tuzgan bo'lsalar, qolgan uchtasini Alisher Navoiyning o'zlari tuzganlar. Bulardan birinchi("Badoe' ul-bidoya") va ikkinchisi ("Navodir un -nihoya") bir jildlik tarzida tartib berilgan bo'lsa, uchinchisi ("Xazoyin ul-maoniy") devonlar turkumidan, ya'ni to'rt devondan iborat yaxlit qomusiy asardir. Alisher Navoiyning o'zlari tuzgan devonlarining har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu hol devon tartib berish ishiga Alisher Navoiyning jiddiy munosabatda bo'lganlaridan, bu ishning katta mas'uliyatini teran anglaganlaridan dalolat beradi. Ana shuning tufayli turkiy she'riyat tarixida bu devonlar nodir va takrorlanmas badiiy hodisa bo'lib qoldi.

Shuning uchun Xondamir "Makorim ul-axloq"da Alisher Navoiy ruboiylarini eng go'zal va jozibali; muammo va tarix nav'larida "ham ko'p go'zal ibora va yoqimli so'zlar ul hazratning (ya'ni Alisher Navoiyning) xotiriga kelgan",- deb uqtirgan edi. (Makorim ul-axloq. T., BAN, 1967, 50,53-betlar). Zahiriddin Muhammad Bobur ham "hech kim (Alisher Navoiydek) oncha ko'p va xo'b (she'r) aytqon emas", - deyish bilan birga "yaxshi ruboiyoti ham bor", - deb qo'shib qo'ygan. Demak, Alisher Navoiy o'zbek she'riyatining barcha nav'larida "ko'p va xo'b" asarlar yaratgan buyuk siymodir.

Alisher Navoiy g'azallarining mavzu doirasi keng. Ularda ishq (majoziy va haqiqiy), ijtimoiy, falsafiy, axloqiy mavzular shunchalik mahorat bilan yoritilganki, natijada har bir g'azal badiiy tafakkurning o'ziga xos mujassamiga aylangan. Alisher Navoiy o'zining g'azallari bilan o'zbek she'riyatidagi g'azal yozish an'anasini rivojlantirdi va navoiyona uslubda yozilgan g'azallarni yaratdi. Navoiyona uslubda yozilgan g'azallar bir mavzuni keng va chuqur yoritish, ruhiy kechinmalarining samimiy va haqqoniyligi, pand-nasihati yoki mav'izaning mavjudligi hamda badiiy tasvir vositalaridan nihoyatda mahorat bilan foydalanish bilan ajralib turadi.

Alisher Navoiy o'z g'azallarida "ishq so'zi" (ishqdagi kuyish, yonishlar, ruhiy holat), "rindonalik" va "orifonalik" ning qorishganiga alohida e'tiborni qaratadi. Bu bilan g'azalnavislik ana'nasidagi uslublardan ijodiy ilhomlanish natijasida maydonga kelgan yangi uslubga- navoiyona uslubga ishora qilmoqda. Shuning bilan birga navoiyona uslubda turkiygo'y xalqlar og'zaki ijodidagi "turkiy" va "qo'shuq" nav'lari xususiyatlaridan ilhomlanish yo'nalishi ham ko'zga tashlanadi. Bas shunday ekan, Alisher Navoiy g'azallari ham forsiy, ham turkiy g'azal va "turkiyu qo'shuq"lar xususiyatlarining qorishuvi natijasida yaratilgan ajoyib asarlardir.

Alisher Navoiyning ana shunday ajoyib g'azallarida turli mavzular bilan birga ishq mavzusi alohida mavqega ega.

Alisher Navoiy she'riyati, jumladan g'azallarida ishq keng qirrali mavzu sifatida qalamga olingan, jumladan insonning insonga, tabiatga nisbatan bo'lgan ishq-muhabbati va, shuning bilan birga, Alloh taolaga nisbatan bo'lgan ishq masalalari yoritilgan. har ikkala

ishq mukammal mujassam bo'lgan shaxsning komillikka-komil inson darajasiga erishuvi shoirning bosh maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Alisher Navoiy g'azallaridagi inson, bir tomondan, go'zal mahbuba bo'lsa, ikkinchi tomondan, do'st, yor, erkak jinsidagi yaqin kishi ham bo'lib keladi. Bu fikrning isboti uchun ulug' shoirning mashhup "qaro ko'zum" g'azalini eslatish mumkin:

Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il

Alisher Navoiy she'riyatida haqiqiy ishq - Alloh taologa nisbatan bo'lgan muhabbat, uning zotiy sifatlariga intilish jarayonida komillikka erishuv masalalari, Rasululloh Muhammad hazratlariga bo'lgan sadoqat kabi tasavvufiy mavzular ham qalamga olingan. Bu mavzu faqat alohida g'azallar (na't, hamd, mav'iza) dagina emas, balki boshqa mavzulardagi g'azallar zimnida ham o'z aksini topgan. Shuning uchun bu mavzu keng qamrovli bo'lib, uning o'ziga xos timsol va badiiy tasvir vositalari borki, bu mavzudagi g'azallarni tahlil va talqin qilish jarayonida ularni e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

"G'aroyib us-sig'ar" devonidagi "Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro" misrasi bilan boshlanadigan na't g'azalda Rasululloh Muhammad (s.a.s.) hazratlaridan, ul nabining fazilatlaridan bahs yuritilgan. Bunday g'azallar "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi har bir devonda ham bor.

Alisher Navoiy she'riyatidagi tasavvufiy mavzular insonni komillik sari intilishlarini islomiy falsafa nuqtayi nazaridan badiiyat qonuniyatlari doirasida bayon etadi.

Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy she'riyati-g'azallarida ijtimoiy, siyosiy hayotning muhim muammolari, o'sha davrdagi turli tabaqa vakillari haqidagi mulohazalar, go'zal axloqqa doir pand-nasihatlari ham qalamga olingan.

Shuni nazarda tutgan Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoni" tarkibidagi devonlarni hamd, na't va mav'iza g'azallardan boshlaydi. Masalan, "g'aroyib ul-sig'ar" devonining "Ashraquat", "Zihi husnung", "Ey hamd", "Iloho, podshoho, kirdikoro" so'zlari bilan boshlanadigan, "Navodir ush-shabob" devonining "Zihi zuhuri jamoling", "Ilohiy amringa" kabi so'zlar bilan boshlanadigan hamd g'azallar hamda "Ey nubuvvat", "Zihi javlongahing", ("G'aroyib us-sig'ar"), "Zihi buroqing", "Bediling xayli rusul" ("Navodir ush-shabob") kabi na't g'azallar bilan boshlanishi ham bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Rajabova I. *Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish*. -T.: "Tamaddun", 2010.

[2]. Rafiev A. va boshqalar. *O'zbek tili va adabiyoti. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik*. -T.: "SHarq". 2004.

[3]. Tolipov O', Usmonboeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari*. O'quv qo'llanma. -T.: 2006. - 261 b.

[4]. To'xliiev B., R.Niyozmetova va b. *Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari*. -T.: 2011.

[5]. To'xliiev B. *Adabiyot. Akademik litseylarning birinchi bosqichi uchun darslik*. -T.: 2004. asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: 2006. - 261 b.

[6]. To'xliiev B., R.Niyozmetova va b. *Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari*. -T.: 2011.

[7]. To'xliiev B. *Adabiyot. Akademik litseylarning birinchi bosqichi uchun darslik*. -T.: 2004.

[8]. Rustamova, S. A., & Juraeva, S. D. qizi. (2023). *Technology's impact on the education process*. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(11), 130-134. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4821>

[9]. Амриддинова, Н. Ш. (2011). Актуализация денотативно-сигнификативной семантики фразеологических единиц (на материале английского языка). Вестник Челябинского государственного университета, (10), 16-18.

[10]. Агиронна, R. S. . (2023). *Crucial Specific Features of Self-Assessment and Self-Regulation in English Language Teaching Classes*. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3(11), 1-4. Retrieved from <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/835>

[11]. Bozorova, H., & Shaxnoza , R. . (2023). *The importance of assessment, and its impact in learning process*. *Молодые ученые*, 1(6), 90-94. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/16439> (Original work published 5 июнь 2023 г.)